



**4-SINF TARBIYA DARSLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY
MADANIYATLILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
USULLARI**

Zokirova Ma'suma Qahramon qizi

Turan International University

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi O'qituvchisi

masumazokirova5@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya darslarida ma'naviy-axloqiy madaniyatlik kompetensiyasini rivojlantirish usullari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** tarbiya, ma'naviy tarbiya, axloq, axloqiy tarbiya, metod, tarbiya mazmuni, pedagogik malaka.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются методы развития компетенции морально-этической культуры на учебных занятиях.*

***Ключевые слова:** образование, нравственное воспитание, этика, нравственное воспитание, метод, содержание образования, педагогическая квалификация.*

***Abstract:** This article discusses the methods of developing the competence of moral and ethical culture in education classes.*

***Keywords:** education, moral education, ethics, moral education, method, content of education, pedagogical qualification.*



Prezidentimiz Sh.M.Miromonovich ta'kidlaganlaridek: “Ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o’qitish metodlari, ta’lim standartlari, darslik va o’quv qo’llanmalarini yangilash zarur”. Bu esa o’z navbatida o’quvchilarni ma’naviy tarbiyalash bo’yicha asosiy yo’nalishlarni belgilash¹; – o’quvchilarda Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, axloqiy tarbiya kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chor tadbirlari to’g’risida”gi 1059-sonli qarori

– uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o’qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o’zaro samarali hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish; – aholining farzand tarbiyasi bo’yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o’tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish; – ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog’i orqali tarqatilayotgan g’arazli axborotlar, odob-axloqini yemiruvchi illatlar, o’quvchilarni zalolatga boshlovchi buzg’unchi g’oyalarga qarshi sog’lom dunyoqarashni shakllantirish; – uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo’lga qo’yish kabi bevosita ijtimoiy kompetensiyalar bilan bog’liq vazifalar belgilab berildi.

Boshlang’ich sinf tarbiya darslarida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Quyida 4-sinf tarbiya darsligi misolida bir qator metodlarni ko’rib chiqamiz:



**4-sinf tarbiya darslarida ma'naviy-axloqiy madaniyatlik kompetensiyasini
rivojlantirish metodlari**

T/r	Ma'naviy-axloqiy madaniyatlik kompetensiyasi mezonlari	Darslikdagi mavzular	Qo'llanilgan metodlar
1	Kattalarga hurmat	Baxt oiladan boshlanadi	Klaster
2	O'zaro yordam	Estafeta	“To'g'ri-noto'g'ri” metodi
3	Mas'uliyat	Bizning xatti-harakatlarimiz	Muammoli vaziyat,savol-javob,klaster
4	Kun tartibiga rioya qilish	Sog'lom hayot uchun zarur kun tartibi	Muammoli vaziyat,savol-javob
5	Intilish	Oilaviy kitobxonlik-muvaffaqiyat poydevori	Savol-javob,mantiqiy krossvord
6	Hurmat,mehribonlik	Ona-ulug' zot	“To'g'ri-noto'g'ri” metodi
7	Odob	Insonni xotirlash-milliy qadriyat	Ko'rgazmalilik metodi



4-sinf tarbiya darsligida quyidagi qisqa hikoya keltirilgan bo'lib, bu orqali o'quvchilarda o'zaro yordam, birdamlik kabi fazilatlarining rivojlanishi maqsad qilib olingan:

Estafeta

Yakshanba kuni maktabda sport musobaqalari bo'lishi kerak edi. Har bir sinfdan estafeta uchun jamoa to'planishi kerak. Bir kun oldin bolalar yig'ilib, estafetaga kim chiqishini maslahat qilishdi. Xohlovchilar ko'p bo'lgani uchun jamoa birpasta tuzildi.

Men ham qatnashsam bo'ladimi?-sekingina so'radi Asqar. U sinfga yangi kelgan, o'zi tortinchoq bo'lgani uchun harakatlari beo'xshov ko'rinardi.

Biz hozir kuchli bolalarni tanlayapmiz,-dedi Laylo. -Boshqa sinflarni ko'rdingmi, rosa baquvvat bolalarni tanlashibdi. Yo'q, sen bizni uyaltirib qo'yasan,-dedi yana bir bola. Asqar indayolmay qoldi. U ilgari estafetada qatnashmagan ekan, shuning uchun o'ziga unchalik ishonmadi. Eh, Ra'noning ketgani yomon bo'ldi-da,-dedi Laylo. -O'tgan yilgidek hammadan zo'r qatnashgan bo'lar edi.

Ra'no ilgari shu sinfdan o'qigan, bu yil chet davlatga ketgan qiz edi.

-Ha, zo'r bo'lardi,-dedi Nodira. -Men yaqinda u bilan gaplashdim.

-Yangi sinfi qanday ekan?-so'rashdi qizlar.

-Unchalik yaxshimas. Tilni yaxshi bilmagani uchun yangi sinfdoshlari bilan unchalik kirisha olmayotgan ekan. Qo'lidan hech narsa kelmaydi, deb o'ylashayotgan bo'lsa kerak. Uning qanday aqlli qizligini bilishmaydi-da! Ra'no o'zini tushunadiganlar orasiga qaytishni juda xohlayapti.

Nodira jim bo'lib qoldi, sinfdoshlar ham o'ylanib qolishdi. Shu payt Nodira Asqarning yoniga bordi-da, bolalarga yuzlanib shunday dedi:-Keling, harakat qilib ko'ramiz! Asqar ham qatnashsin. Birgalikda uddalaymiz.

Quyidagi metodlar o'quvchilardagi ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:



Soʻzli tasavvurlar metodi

Bu metodda: oʻrganilayotgan masala bilan bogʻliq boʻlgan eng asosiy soʻzni oling. Oʻquvchilardan ular bu soʻzni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa soʻzlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq. Bironta soʻzni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada oʻquvchilar dastlabki soʻz bilan tasavvur qiladigan turli soʻzlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil boʻladi.

Mavzu oʻrganib boʻlingandan soʻng har bir oʻquvchidan ular ushbu mavzu boʻyicha nima deb oʻylashi yoki his qilishini bir soʻz bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli boʻlgan soʻzni misol keltirishni soʻrang. Sinf aylanib, bunday soʻzlarni yigʻib chiqing. Bir yoki ikki nafar oʻquvchilardan ushbu soʻzlarning roʻyxatini tuzishni iltimos qiling.

Ushbu usul mavzuni oʻrganish jarayonining boshida oʻquvchilar mavzu boʻyicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – oʻquvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qoʻllanilishi mumkin.

Bunday usul oʻquvchilarga oʻzlarining shaxsiy rivojini koʻrishga, sizga esa – siz berayotgan taʼlim sifatini baholashga yordam beradi.

Mashq uchun ajratilgan vaqtga qatʼiyan amal qilish lozim. Jarayonning choʻzilishi mashq mohiyatini oʻzgartirishi mumkin.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida maʼnaviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifadir. Tarbiya metodlarini toʻgʻri tanlash esa tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda oʻquvchilarning oʻzini-oʻzi tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Tabiya metodlari oʻquvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli koʻpgina tarbiyaviy taʼsirlarni oʻz ichiga oladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari, savollar, javoblar. –T.: «Talqin», -17-18-betlar.
2. Mamadjanova N. A. Boshlang‘ich sinf ingliz tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy madaniyatlik malakalarini shakllantirish metodikasi: ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati – N., 2022. 51 b.
3. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. “Toshkent”, “Moliya” 2003y 172-bet.
4. Shermuhamedova S. va boshqalar. Tarbiya. Umumiy o‘rta maktablarning 4-sinf o‘quvchilari uchun darslik. –T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2022.
5. www.lex.uz